

LINGVISTIK ANTROPOSENTRIZM HAQIDA MULOHAZALAR

Umarov Kamoldin Jamolovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Andijon davlat universiteti

Yuldashboyeva Sarvinozbonu Mash'albek qizi

Andijon davlat universiteti talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada, antroposentrik tilshunoslikning til tizimida tutgan o'rni va uning kelib chiqishi, o'zbek tilshunosligiga ta'siri haqida qisqacha bayon qilingan. Unda antroposentrizm haqida ilmiy tadqiqot olib borgan bir qancha olimlarning fikrlari keltirilgan va ularga munosabat bildirilgan.*

***Kalit so'zlar:** antroposentrizm, ilmiy paradigma, antroposentrik paradigma, o'zbek lisonshunosligi, integrativ yo'nalish, shaxs omili.*

***Annotation:** This article briefly describes the role of anthropocentric linguistics in the language system, its origin, and its influence on Uzbek linguistics. It contains the opinions of several scientists who have conducted scientific research on anthropocentrism and expressed their reactions to them.*

***Key words:** anthropocentrism, scientific paradigm, anthropocentric paradigm, Uzbek linguistics, integrative direction, personality factor.*

***Аннотация:** В данной статье кратко описывается роль антропоцентрической лингвистики в языковой системе, ее происхождение и влияние на узбекское языкознание. В нем собраны мнения нескольких ученых, проводивших научные исследования по антропоцентризму и выразивших свою реакцию на них.*

***Ключевые слова:** антропоцентризм, научная парадигма, антропоцентрическая парадигма, узбекское языкознание, интегративное направление, личностный фактор.*

“Antroposentrik tilshunoslik o'zbek lisonshunosligi uchun nisbatan yangi, jahon tilshunosligi uchun esa kamida ikki yarim asrlik tarixga ega bo'lgan yangi yo'nalish hisoblanadi.” [1.403] “Antroposentrizm” so'zi yunoncha “antropos” - inson va “centrum” - markaz so'zlaridan olingan bo'lib, bu yo'nalishning asosini antroposentrik paradigma tashkil qiladi. Antroposentrik paradigma haqida gap borar ekan, avvalo, paradigma tushunchasiga to'xtalib o'tish zarur.

“Ilmiy paradigma (yunoncha - “misol, namuna”) fan obyektini, uning muayyan davrda hokim bo'lgan nazariy tushunchalarni o'rganishga yo'naltirilgan va o'zaro bog'langan muayyan tadqiqot metodikalarining majmuidir. An'anaviy tarzda

ilmiy paradigma 3 turga ajratiladi: qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antroposentrik.” [2.6] Bugungi kunda yuqoridagi ikki paradigmaga bo‘lgan e’tibor susayib, antroposentrik paradigmanning ahamiyati ortdi. Endi esa asosiy e’tibor ushbu paradigmaga qaratildi.

“Antroposentrik paradigma bu – tadqiqotchilar qiziqishlarining obyektidan subyektga o‘tishi, ya’ni insonning tilda tilning esa insonda tahlil qilinishidir.” [3]

“Bu termin dastlab qadimgi yunon falsafasining “Inson koinot markazidir” degan g‘oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, bu g‘oya ayniqsa, o‘rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi.” [1.403] Bu paradigmanning shakllanishi til egasi bo‘lgan so‘zlovchi, shaxs omilini tadqiq etish bilan bog‘liq. Demak, mazkur yo‘nalishning mohiyatida “til–shaxs–nutq” dixotomiyasi turadi. Antroposentrizmning mohiyatida koinot sarvari bo‘lgan inson asosiy o‘ringa qo‘yiladi, ya’ni tadqiqot obyekti bo‘ladi. Til esa inson shaxsini namoyon etuvchi asosiy unsur sifatida qaraladi. Zero, rus adibi S.Dovlatov aytganidek: “Inson shaxsiyatining 99% ini til tashkil etadi.” Shu bois, “inson aqlini insonning o‘zidan, tildan hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo‘lmaydi” (V.A.Maslova) [2.10].

Antroposentrik paradigmanning asosi buyuk nemis olimi Vilgelm fon Gumboldtga borib taqaladi, ya’ni til va inson tabiati o‘rtasidagi bog‘liqlik Gumboldt g‘oyalaridan boshlangan. U o‘zining lingvistik-falsafiy asarlarida tilning rivojlanishini inson tabiatining ichki dunyosi bilan bog‘liq deb hisoblaydi va u tezisni ilgari suradi. “Aytish kerakki, antroposentrizm tilshunoslar tomonidan faqat til tadqiqigagina nisbatlangan tushuncha yoki paradigma emas, antroposentrizm bevosita tilning mohiyatiga daxldor hodisadir.” [6.6] “tilning antroposentrikligi haqidagi g‘oya zamonaviy lingvistikada ochqich maqomidagi g‘oyadir. Bizning davrimizda endi til sistemasining shunchaki turli tasniflarini yaratib berish lingvistik tahlilning maqsadi bo‘la olmaydi.” [7] deya alohida ta’kidlaydi rus olimi Maslova.

“Vilgelm fon Gumboldt tilning mohiyatiga yana ham yaqinroq yondashib, shunday yuksak baho beradi va dunyoni anglashning asosi til ekanligini ilmiy jihatdan isbotlab beradi. U “til – inson va borliq o‘rtasidagi oraliq dunyo”, – deydi. Ushbu falsafadan kelib chiqib, insonning nutq tovushlari signali orqali ifodalangan tilni – oltin halqaga o‘xshatish mumkin. Bu oltin halqa – insoniyat va borliq uzvlarini o‘zida birlashtiradi va bundan keyin ham jamiyat uchun zarur bo‘lgan yangidan-yangi bilimlarni kashf qilaveradi.” [8.77-82]

“Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi “til qanday qurilgan” degan masaladan “til qay tarzda amal qiladi” degan masalaga ko‘chishi bilan izohlanadi. Tilning qay tarzda amal qilishini tadqiq etish uchun esa tilni nutq subyekti bo‘lgan shaxs omili nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi.” [9] Ushbu paradigma haqida professor Nizomiddin Mahmudov o‘zining “Tilning

mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida juda chiroyli fikrlarni bildirib o‘tgan. “Bugun dunyoda olamni bilishda tilning ustuvor roli, uning real borliq va ongga faol ta’siri insonning butun ruhiy va bilish faoliyatida bosh omil va asosiy manba ekanligi deyarli e’tirof etilgan, ayni shu haqiqat tilga antroposentrik yondashuvning mustahkam zaminini tashkil etadi.” [6. 7]

Durdona Xudoyberganova shu yo‘nalish bo‘yicha izlanish olib borgan tadqiqotchilardan biridir. U o‘zining “Lingvistik antroposentrizm va o‘zbek tilshunosligi” nomli maqolasida antroposentrik tilshunoslikning mohiyatini chuqurroq ochib berishga harakat qiladi: “Lingvistik antroposentrizm integrativ yo‘nalish hisoblanib, muayyan o‘rinlarda sotsiologiya, kognitiv psixologiya, epistemologiya, madaniyatshunoslik, etnografiya, sun‘iy intellekt, tibbiyot kabi sohalarga doir nazariy qarashlardan foydalanadi. Mazkur paradigma markazida o‘z shaxsiyatini, maqsadini, g‘oyalarini, qarashlarini til vositasida ifodalayotgan inson – aniq tarixiy sharoitda yshayotgan, aniq millatga mansub bo‘lgan, o‘z milliy qadriyatlarini va milliy tafakkurini, o‘z ona tilining imkoniyatlarini namoyon etuvchi til sohibi turadi.” [11. 9]

Ayrim tilshunoslarning fikricha, antroposentrik paradigma o‘tgan asrda hokim bo‘lgan strukturalizm oqimining asosi bo‘lgan “o‘zida va o‘zi uchun” tamoyilini butunlay chetga surib qo‘ydi. [12. 5] endi unda asosiy e’tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya’ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasiga qaratildi. Zero, “Har qanday matn ortida lisoniy tizimlarni egallagan muayyan shaxs turadi.” [13. 3-8]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, til – yillar osha rivojlanib, o‘zgarib, takomillashib boradigan hodisa. U yangi ma’lumotlarni o‘zlashtiradi, eskilarini chiqarib tashlaydi. Shunday imkoniyatlar hisobiga rivojlanadi, ya’ni jamiyatga qarab o‘zgaradi, jamiyatning mohiyati esa insondir. Inson qadri, uning manfaatlari birinchi o‘ringa qo‘yilayotgan bir pallada bunday o‘zgarishlar tilga ham ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Fikrimizcha, o‘tgan asrda hukmronlik qilgan strukturalizmning ahamiyati pasayib, tilni inson va borliq munosabatlariga bog‘lab o‘rganish bevosita jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq deb o‘ylaymiz. Chunki, “til dunyoning milliy qiyofasida mavjud bo‘lgan hamma narsani ham qayd etolmaydi, lekin hamma narsani bayon qilishi mumkin.” [14] Hamma narsani bayon qiluvchi vosita nutq hisoblanadi. Nutqni esa uning paydo bo‘lishiga turtki bo‘luvchi omillar (shaxs ruhiyati, muloqot ehtiyoji, borliq o‘zgarishlar va h.k.) bilan bog‘lab o‘rganish zarurligi – ko‘rinib turgan hodisa. Zero, adabiyot tili bilan aytganda, har qanday voqea-hodisa ijodkorning qalb prizmasidan o‘tadi, undan keyingina nodir asarlar paydo bo‘ladi. Ijodkor ham eng avvalo shaxs. Nodir asarlar esa ongimizda qayta ishlangan nutqdir. Uning qay tarzda paydo bo‘lishi “ijodkor”ga bog‘liq. Buni, hattoki, bir necha asrlar oldin isbotini topgan mavjudlik falsafasida ham ko‘rishimiz

mumkin. Unga ko‘ra, “shaxs bosh maqsad, jamoa esa uning moddiy mavjudligini ta‘minlashga xizmat qiladigan vositadir.” [15]

“Bu uzun qissadan hissa shuki, tilshunoslar butun dunyoda tilni tadqiq etishning eng maqbul yo‘llarini hamisha izlab kelgan. Bu jarayonlarda jiddiy muvaffaqiyatlarga ham erishilgan. Hozircha yana shunday muvaffaqiyatlardan biri, shubhasiz, tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning yuzaga kelganligi va uning turli ko‘rinish hamda yo‘nalishlarda jadal rivojlanib borayotganligidir.” [6. 16]

Shunday qilib, lingvistik antroposentrizm tilda inson shaxsini tarkib toptiruvchi barcha vositalarni qamrab oladi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, inson ongining lisoniy tizimi (kognitologiya), milliy madaniyatga bo‘lgan munosabati (lingvokulturologiya), shaxsning ruhiy holati (psixolingvistika), jamiyat bilan munosabati (sotsiolingvistika) bir nuqtada kesishadi. Ularning kesishgan nuqtasi lingvistik antroposentrizmning o‘rganish obyekti bo‘la oladi.

Adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2010. – 403 b.

2. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М., 2001. – С. 6.

3. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/antroposentrik-paradigma-va-uning-lingvokul>

4. Mahmudov. N. “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” /O‘zbek tili va adabiyoti . 2012. N. 5. B-6

5. Маслова. В. А. Лингвокультурология М: Academia 2001 С. 5 Хомутова Т. Н. Научные парадигмы в лингвистике // вестник Челябинского государственного университета 2009 N 35 (173)

6. Umarov. K. J. “Tilning gnoseologik tabiati” Filologiyaning dolzarb muammolari Andijon-2009. – B. 77-82.

7. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/antroposentrik-paradigma-va-uning-lingvokul>

8. Xudoyberganova . D. “Lingvistik antroposentrizm va o‘zbek tilshunosligi” / O‘zbek tili va adabiyoti. 2022. – № 5. С-9

9. Седов К. Ф. Дискурс и личность. – С. 5.

10. Караулов. Ю. Н. Русская языковая личность и задача и изучения / Язык и личности М. 1984. С. 3-8

11. Nursulton Shayxislamov. Hozirgi zamon tilshunosligida til va madaniyatning talqini. Scientific Progress journal. <https://cyberleninka.ru/article/n/hozirgi-zamon-tilshunosligida-til-va-madaniyatning-talqini/viewer>

12. Oyina. uz. 12. 12. 2023 <http://forum.oyina.uz/uz/teahause/2599>